

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Sultonov	
Chingizxon va Jin davlati o'rtasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili	224
M.A.Boltaboyev	
Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'lmagan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati	234
Sh.B.Jumayeva	
Globalashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat.....	239
M.R.Sodiqova	
Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni (1991-2021-yillar).....	244
A.X.Nigmatov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari.....	251
M.B.Nazirov	
Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri.....	257
B.N.Rizayev, B.H.Ризаев, B.N.Rizaev	
A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi	260
M.A.Maxmudov	
XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati	266
I.B.Boxodirov	
Birinchi jahon urushi yillarida turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi	270
J.Sultonov	
Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi	273
O.B.Nizomiddinov	
O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida)	279
O.H.Jaynarov	
O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari).....	284
O.M.Normatov	
Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida	289
Y.A.Shukurillayev	
Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari.....	293

Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagi falsafiy yondashuvlar	297
X.J.Isomiddinov	
Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari.....	300
M.B.Nazirov	
Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri	304



UO'K:94(545.1):070(043.3)

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA O'RTA OSIYODAGI MADANIY OBIDALARNI SAQLAB QOLISHDA SREDAZKOMSTARISNING FAOLIYATI**В 20-30-Х ГОДАХ XX ВЕКА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СРЕДАЗКОМСТАРИСА ПО СОХРАНЕНИЮ КУЛЬТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ****THE ACTIVITY OF SREDAZKOMSTATIS IN PRESERVING CULTURAL MONUMENTS IN CENTRAL ASIA IN THE 1920S AND 1930S****Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich** 

"University of Business and Science" universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya

O'tgan asrning birinchi yarmida o'tmish madaniyatga nisbatan panja ostidan qarash kuchaydi. Shunga qaramasdan rus ziyolilari va mahaliy ziyolilarimiz tomonidan o'lkamizdagi madaniy meros obidalarini saqlab qolish uchun tashkilotlar tuzildi. Ular tomonidan o'lkamizdagi obidalarni o'rganish, ularni ro'yxatini tuzish va ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratildi.

XX asrning 20–30-yillarida mashhur bo'lgan O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligi nashriyot organi bo'lgan – "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali bu borada eng faol nashrlardan biri bo'lganligini ta'kidlash kerak. Mazkur jurnal sahifalarida milliy ziyolilarning tarix, adabiyotshunoslik, elshunoslik, qadimshunoslik va boshqa yo'nalishlardagi tadqiqotlari chop etib borildi. Maqolada ziyolilarning tarixiy madaniy merosga bo'lgan munosabatining tahlili o'z aksini topgan.

Аннотация

В первой половине прошлого века усилилось пренебрежительное отношение к культурному наследию из прошлого. Несмотря на это, русскими и местными интеллигентами в нашей стране были созданы организационные для сохранения памятников культурного наследия. Эти организационные уделяли большое внимание изучению памятников, составлению их списка и проведению реставрационных работ.

Следует отметить, что одним из самых активных изданий в этой области был журнал "Обучение и Учитель", который в 1920–1930-е годы являлся печатным органом Народного комиссариата просвещения Узбекской ССР. На страницах этого журнала публиковались исследования национальной интеллигенции по истории, литературоведению, этнологии, археологии и по другим направлениям. В данной статье анализируется отношение интеллигенции к историко-культурному наследию.

Abstract

In the first half of the last century, a dismissive attitude towards past culture increased. Despite this, Russian and our local intellectuals established organizations to preserve the cultural heritage monuments in our region. These organizations paid great attention to studying the monuments, compiling their lists, and carrying out restoration work.

It should be noted that one of the most active publications in this field was the journal "Education and Teacher", which, in the 1920s–1930s, served as the publishing organ of the People's Commissariat of Education of the Uzbek SSR. The journal was publishing research by national intellectuals in history, literary studies, ethnology, archaeology, and other fields. This article analyzes the intellectuals' attitude towards historical and cultural heritage.

Kalit so'zlar: Sredaskomotaris, Qo'qon, Farg'ona, Namangan, Samkomotaris, Samarqand, "Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish Turkiston qo'mitasi (qisqacha Turkomstaris). Turkkomotaris.

Ключевые слова: Средазкомотарис, Коканд, Фергана, Наманган, Самкомотарис, Самарканд, музейная работа, охрана древних памятников, искусства и природы Туркестанский комитет (сокращенно Турккомотарис). Турккомотарис.

Key words: Sredazkomotaris, Kokand, Fergana, Namangan, Samkomotaris, Samarkand, Museum work, ancient monuments, art and nature preservation Turkestan Committee (abbreviated as Turkcomotaris). Turkcomotaris.

KIRISH

XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmi – 30-yillar sovet hokimiyati uchun o'zining siyosiy va iqtisodiy mavqeyini yanada mustahkamlash davri bo'ldi. Bolsheviklarning mutlaq yakkahokim partiyasi jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. Ayniqsa, bu kishilar ongini o'zgartirishda muhim omil bo'lgan ma'naviyat sohasida jiddiy tus oldi. Agar sovet hokimiyatining dastlabki yillarida madaniyat va uni boshqarish jabhalarida birmuncha erkinlik mavjud

TARIX

bo'lib, hokimiyat mahalliy urf odatlar va xususiyatlarni hisobga olishga majbur bo'lsada, keyinchalik ma'muriy buyruqbozlik usullari keng quloch yoyib, mustahkamlanib bordi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolani yozishda O'zbekiston Milliy arxivining R-394-fondidagi materiallardan foydalanilgan. Bundan tashqari, mavzuga oid bo'lgan dissertatsiyalardan ham manba sifatida keng tahlil qilingan. Masalan, M.Mirzayevning[9] ilmiy tadqiqotida O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza etish va o'rganish masalasi, faoliyatning tashkil etilishi va rivojlanishi hamda bu yo'ldagi qator kamchiliklar va muammolar, ularning echimlari xususida ma'lumotlar uchraydi. Qolaversa, V. Byatkin[1; 2], V. Bartold[3; 4], M. Masson[5; 6; 7] kabi olimlarning mavzuga doir qator ilmiy asarlari ham alohida qiymatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

«XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyo madaniy obidalarini saqlab qolishda Sredazkomstarisning faoliyati» nomli mazkur tadqiqotni yoritishda xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, tizimlilik tamoyili asosida ish ko'rib, qiyosiy tahlil usullaridan bevosita foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalqning tarixiy obidalarimizni saqlab qolishga bo'lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan uzoqni ko'zlamay, yaxshi o'ylamay olib borgan siyosati natijasida siyosiy manfaatlar yo'lga burildi. O'tmish madaniyatga nisbatan panja ostidan qarash kuchaydi. Shunga qaramasdan, rus ziyolilar va mahalliy fidoyilarining sa'y-harakatlari natijasida o'lkada tarixiy-obidalarini saqlash hamda o'rganish ishlari davom ettirildi.

1924 yil oxirida O'rta Osiyo hududida milliy davlat chegaralarining o'tkazilishi munosabati bilan qadimgi yodgorliklar tabiatni muhofaza qilish va muzey ishlarini tashkiliy jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruriyati tug'ildi.

1924-yil 26-dekabrda turkkomotarlar qayta tashkil etilib O'rta Osiyo Kengashiga bo'ysunuvchi Muzey ishlari qadimgi yodgorliklar san'at va tabiatni muhofaza qilish O'rta Osiyo Qo'mitasi Sredaskomotarlar deb nomlandi.[15,1] Mazkur qo'mita o'zining faoliyatini yangi tashkil etilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalari hududida olib bordi.

Yangi tashkil etilgan Sredaskomotarlar o'zidan oldingi Turkkomotarlar (1921-yil 22-mayda Turkiston ASSR XKK dekreti bilan Maorif xalq komissarligi tarkibida «Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish Turkiston qo'mitasi qisqacha Turkomstarisni ta'sis etish haqida»gi Nizom tasdiqlandi.) kabi qadimgi yodgorliklar san'at va tabiatni saqlash muhofaza qilish va o'rganish muzey ishlariga rahbarlik qilish va uni rivojlantirish ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil qilish kabi vazifalarni o'zining asosiy vazifasi qilib qo'ydi. Sredazkomstaris tashkil etilgandan so'ng asosan, uchta bo'lim bo'yicha faoliyat ko'rsatdi[8, 57].

1. Muzey bo'limi – barcha muzeylarga ilmiy va uslubiy rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini eshitish hamda yangi muzeylarni tashkil etish vazifalarini amalga oshirdi. Muzey bo'limi asosan, O'rta Osiyo bosh muzeyi bilan birgalikda tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalar rejasi va smetalarini ko'rib chiqdi. Mazkur ekspeditsiyalar natijasida muzeylarning ekspozitsiyalari tabiatshunoslik, etnografiya va arxeologiyaga oid yangi manbalar bilan boyidi.

2. Qadimgi va san'at yodgorliklarini saqlash va ta'mirlash bo'limi – O'rta Osiyo hududidagi eng muhim yodgorliklarni hisobga olishga e'tiborni qaratib, ushbu yodgorliklarni tez va birinchi navbatda, ta'mirlash ishiga rahbarlik qildi. Ushbu bo'lim O'rta Osiyo hududida tarixiarxeologik tekshiruv va qazishma ishlarini olib bordi.

3. Tabiat yodgorliklarini saqlash va ta'mirlash bo'limi – tabiatning eng qimmatli va muhim yodgorliklarini aniqlash bilan shug'ullandi. Bir qancha qo'riqxonalar tashkil etdi. O'simliklar va hayvonot dunyosining turli eng nodir qismini saqlab qolishga e'tiborini qaratdi. Bo'lim ixtiyorida Toshkentdagi zoobotanika bog'i bo'lib, uning ishini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi[15,1].

1925-yil 7-mayga kelib, Sredaskomotarlar ixtiyorida quyidagi tashkilotlar mavjud edi: Samarqand va Zarafshon qadimgi yodgorliklarni saqlash va o'rganish viloyati komissiyalari Toshkent shahridagi O'rta Osiyo bosh muzeyi markaziy badiiy muzey Birinchi O'zbek muzeyi O'rta Osiyo inqilob muzeyi hayvonot bog'i Samarqand, Zarafshon, Yettisuv viloyati muzeylari Xiva, Qo'qon, Farg'ona, Namangan, Turkman, Qorako'l shahar va Sirdaryo Guberniya muzeylari[9,48].

1926-yil 8-apreldagi ma'lumotlariga ko'ra, Samkomstaris ixtiyorida 19 ta yodgorlik bor bo'lib, ular Tillakori, Sherdor, Ulug'bek va Nodir devonbegi madrasalari, Go'ri Amir, Oqsaroy, Bibixonim, Ishratxona, Xoja Abu Darun, Xoja Abu Berun, Cho'pon ota, Ruhobod, Childuxtaron maqbaralari,

Namozgoh va Bibixonim jome masjidi, Ulug'bek rasadxonasi, Zarafshondagi Ark, Afrosiyob va bozor toqilardan iborat edi[13,48].

Samkomotaris xodimlarining tashabbusi bilan Cho'pon ota maqbarasi va Ulug'bek rasadxonasida sozlash ishlari to'la bajarildi. 1926-yilda Sredazkomotarisning Samarqand bo'yicha komissiyasi yana Ulug'bek madrasasi minorasini to'g'rilash va mustahkamlash ishiga alohida diqqatni qaratdi.

1927-yilning mart may oylarida Sredazkomstarisga bo'ysunuvchi O'rta Osiyo respublikalari qo'mitalarini tuzish haqida muzokaralar olib borildi[14,18-22]. Masalan, 1927-yil 18-martda Sredazkomstaris xodimlarining Turkmaniston[16,13] va 1927-yil 7-mayda Qirg'iziston vakillari bilan birgalikdagi majlisi[17,14]da bu haqda fikrlar bildirildi. 1925-yilda esa Sredazkomstaris tomonidan O'rta Osiyo hududining turli viloyati va tumanlariga 10 dan ortiq arxeologik ekspeditsiyalar uyushtirildi[9,75].

Sredazkomstris 1925-yilda me'mor E. A. Masalskiy rahbarligida Xorazm viloyatiga birinchi ekspeditsiyani yo'lladi. Ekspeditsiya shaharning ichki va tashqi devorlari va xon saroyini o'rgandi. Biroq, ekspeditsiya Xivada qadimgi me'moriy obidalar yo'q, mavjudlari XVIII–XIX asrlarga tegishli, degan noto'g'ri xulosa berdi. Shuningdek, xon kutubxonasi va unda saqlanadigan kitoblar ko'rilganda, ularning ayanchli ahvoli haqida ma'lumot berdi[12,27].

Professor A. Semyonov boshchiligidagi kichik ekspeditsiya esa Toshkentning Eski shahar qismida arxeologik ekspeditsiya uyushtirdi. Farg'ona vodiysining Kosonsoy hududiga nemis olimi E. Kon Viner bilan birga borgan ekspeditsiya Shoh Fozil mozori va boshqa yodgorliklarni tekshirdi. Aynan shu ekspeditsiyada ilk bor tarixiy binolar suratga tushirildi[18,49].

1927-yilda qadimiy yodgorliklarni tekshirish ular holatini o'rganish maqsadida Sredazkomstaris yana 6 ta ekspeditsiyani tashkil etdi. 1927-yil 24-apreldan 6-maygacha arxeolog M. E. Masson Farg'ona vodiysiga ekspeditsiya uyushtirib, qadimiy O'zgan qishlog'idagi buyumlarni o'rgandi. Shu bilan birga, Farg'ona muzeyining ahvoli arxeologik va numizmatik buyumlari bilan yaqindan tanishdi. M. E. Massonning ta'kidlashicha, turli joylarda jami 145 ta butun va 2 ta singan tangalar yig'ildi. Bular 55 ta butun va 2 ta singan kumush, 90 ta butun mis tangalar edi[11,123-124].

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmida O'zbekistonda madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, ularni o'rganish ishi ancha jonlandi. Tadqiqotchilar mazkur muammoni har tomonlama muhokama qila boshladilar va bu ishda ma'lum tizim paydo bo'ldi. V. V. Bartold, V. L. Vyatkin, M. E. Masson, A. A. Mironov, D. I. Nechkin, I. I. Umnyakov va V. A. Shishkin kabi rus olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'lka tarixi, uning boy madaniy merosi, shuningdek, til hamda sharqshunoslikka oid muhim xulosalari o'z ahamiyati jihatidan qimmatlidir [4; 3; 1; 2; 5; 7; 6]. Jumladan, V. Bartold o'z asarlarida ko'tarilgan masalalarni umumdavlat tasarrufidagi vazifalar sifatida tushundi. Chunonchi, qadimgi yodgorliklarning ahamiyati haqida fikr bildirib, moddiyashyoviy qoldiqlarsiz yozma manbalarni o'rganib bo'lmaydi, deya qayd etib, o'lka yodgorliklarini muhofaza qilish va o'rganishga chaqirdi hamda davlat tashkilotlarining bu ishlari amalga oshirish borasida faoliyatga tanqidiy baho bergan edi[3,66-69].

1927-yil 6-oktyabrda O'zbekiston SSR MIQ va XKK "O'zbekiston SSR hududidagi qadimgi yodgorliklarni Sredazkomstaris ixtiyoriga o'tkazish haqida"gi 128-sonli qarorini qabul qildi. Mazkur qarorga muvofiq, Samarqand shahri va Buxoro okrugidan – 18 ta, Zarafshon okrugidan – 2 ta, Surxondaryo okrugidan – 8 ta, Qashqadaryo okrugidan – 4 ta, jami 33 ta yodgorlik qo'mita ixtiyoriga o'tkazilgan edi. 1927-yilning oxiriga kelib, Sredazkomstaris tasarrufiga o'tkazilgan tarixiy va me'moriy yodgorliklar soni 105 taga etdi[19,265-275].

Qo'mita faoliyati davomida O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududining turli joylariga ellikka yaqin yirik ilmiy ekspeditsiyalar yuborildi. Shundan Samarqand va Buxoroga jo'natilgan yirik ekspeditsiyalar natijasida joylardagi obidalar tarixiy, arxeologik hamda etnografik nuqtayi nazardan chuqur va keng o'rganildi. Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy binolar va inshootlar ro'yxati kengaydi. Bu boradagi tekshirish hujjatlar arxiv fondida saqlanadi. Shu bilan bog'liq holda "Credazkomstaris axborotlari" matbuot organining o'rnini alohida ta'kidlash kerak. "Axborotlar"da Sredazkomstarisning o'lkadagi tarixiy yodgorliklarni saqlash va o'rganish sohasidagi faoliyatini yoritib beruvchi maqolalar bosilgan edi. Bular esa, o'z navbatida, mazkur fond hujjatlarining ilmiy ahamiyati to'g'risida aniq tasavvurlar hosil qilish imkoniyatini beradi.

TARIX

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, yurtimizning qadimiy tarixini o'rganish borasida arxeologik tadqiqotlar olib borish va moddiy madaniyat boyliklarimizni saqlash muhofaza qilish ta'mirlash o'rganish va targ'ib qilish borasida, Sredazstaris faoliyati alohida o'ringa ega bo'ldi.

XX asr 20-yillari oxiri – 30-yillarda O'zbekistondagi bir necha me'moriy obidalar diniy nuqtai-nazardan baholanib, ataylab qarovsiz holga tashlab qo'yildi. Ushbu obidalarining tarixiy ahamiyati va qadri tushirilib, ular omborxonalar, kasalxonalar, savdo do'konlari, hatto avtomobillar saqlaydigan joy sifatida foydalanildi. Oqibatda, bir qancha tarixiy me'moriy obidalar vayron bo'ldi va butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Shunga qaramay, yodgorliklarni targ'ib qilish, tariximiz va qadriyatlarimizga bag'ishlangan ma'ruzalar o'qish, matbuotlarda chiqish Sredazkomstar hamda uning joylardagi bo'limlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolgan edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вяткин В. Л. Афрасиаб-городище бывшего Самарканд. – Самарканд, 1928;
2. Вяткин В. Л. Памятники древностей Самарканда. – Самарканд, 1929;
3. Бартольд В. В. Будущее Туркестана и следы его прошло // Известия Средазкомстариса. – Ташкент, 1926. Вып. I.
4. Бартольд В. В. Отчет о командировке в Туркистана // Известия Российской академии истории материальной культуры. – Петроград, 1922. Т.2.
5. Массон М. Е. Археологический и нумизматический рынок в Самарканде за 1924 год // Известия Средазкомстариса. – Ташкент, 1926. Вып. I.
6. Массон М. Е. Монетные находки, зарегистрированные в Средней Азии за время с 1917–1927 гг. – Ташкент, 1928.
7. Массон М. Е. Регистан и его медресе. – Ташкент, 1926;
8. Махмудов М. А. XX асрнинг 20-30 йиллари Ўзбекистонда маданият мерос масалалари (даврий матбуоти материаллари асосида): т.ф.ф.д. (PhD) у-н дисс... – Қарши, 2022.
9. Мирзаев М. А. Ўзбекистонда тарихий ва маданият ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йй.): т.ф.н. у-н дисс... – Тошкент, 1994.
10. O'zMA, R-394 fond, 1-ro'yxat, 278-ish.
11. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 266-ish.
12. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 125-ish.
13. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 208-ish.
14. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 269-ish.
15. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 278-ish.
16. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 318-ish.
17. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 319-ish.
18. O'zMA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 37-ish.
19. Умняков И. И. Археологическая и ремонтно реставрационная работа Средаскомотариса в 1927 г. // Известия Средаскомотариса. – Ташкент, 1928. – Вып. 3.